

**ONA TILI DARSLARIDA NUTQIY SALOHIYATNI
SHAKLLANTIRISHGA OID TAVSIYALAR**

Xurramova Mahliyo To'xtasin qizi

ToshDO 'TAUning 3-kurs talabasi

mahliyoxurram8@gmail.com

Annotatsiya : *Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida ona tili darslarining ahamiyati, o'quvchilarda nutqiy kompetensiya va tafakkur madaniyatini shakllantirish, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, metodist va tilshunos olimlarning fikrlariga tayangan holda, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish, matn asosida ishlash orqali til o'rganish samaradorligini oshirish usullari tahlil qilinadi.*

Annotation: *This article explores the significance of native language lessons in the modern education system, the development of students' speech competence and culture of thinking, as well as the enhancement of oral and written communication skills. It also analyzes methods for improving language learning efficiency through text-based activities, fostering creative and critical thinking, based on the views of methodologists and linguists.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается значение уроков родного языка в современной системе образования, вопросы формирования у учащихся речевой компетенции и культуры мышления, развития навыков устной и письменной речи. Также анализируются методы повышения эффективности изучения языка через работу с текстом, стимулирование творческого и критического мышления на основе мнений методистов и лингвистов.*

Kalit so'zlar: *ona tili, ta'lim metodikasi, nutqiy kompetensiya, og'zaki va yozma nutq, ijodiy tafakkur, muloqot madaniyati, matn ustida ishlash, o'quv topshiriqlari.*

Keywords: *native language, teaching methodology, speech competence, oral and written speech, creative thinking, communication culture, working with texts, educational tasks.*

Ключевые слова: родной язык, методика преподавания, речевая компетенция, устная и письменная речь, творческое мышление, культура общения, работа с текстом, учебные задания.

Kirish

So'nggi yillarda ta'lim tizimini isloh qilish, o'quvchilarning har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllanishiga ko'maklashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, ona tili ta'limining metodik asoslarini takomillashtirish, bu sohadagi ilg'or tajriba va yondashuvlarni dars jarayoniga singdirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki til nafaqat aloqa vositasi, balki inson tafakkurining ifodasi, madaniyat va axloqiy qadriyatlarning asosiy vositasidir.

Ona tili darslari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, dalillash, o'z pozitsiyasini ifoda eta olish, shuningdek, muloqotda madaniyatli ishtirok etish kabi ko'nikmalar shakllantiriladi. Bu jarayon faqat grammatik bilimlarni egallash bilan cheklanmasdan, balki ijodiy yondashuv, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topa oladigan shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda o'quvchilarda erkin fikrlash, o'z fikrini ravon va aniq ifodalash ehtiyoji kuchaymoqda. Maktabdagi o'quv jarayonida o'quvchilar faqat grammatik qoidalarni bilish bilangina cheklanib qolmasdan, uni amaliy nutqda qo'llay olishda qiynaladilar. Shu bois ona tili darslari mazmunan boyib, metodik jihatdan takomillashishi lozim.

Zamonaviy pedagogik qarashlarga ko'ra, dars jarayonida matn ustida ishlash, o'quv topshiriqlarini ijodiy tarzda tuzish, savol-javoblar orqali o'quvchini fikrlashga undash, ilgari surilgan g'oyalar ustida mulohaza yuritish – bu bugungi ona tili darslarining ustuvor jihatlaridan hisoblanadi. Har bir mashg'ulotda

o'quvchining shaxsiy faolligini rag'batlantirish, uning o'z fikrini ifoda eta olish salohiyatini oshirish orqali nutqiy kompetensiya shakllanadi.

Professor N. Mahmudov ta'kidlaganidek, nutqning boyligi va ta'sirchanligi so'z boyligiga, grammatik vositalardan oqilona foydalanish ko'nikmasiga bog'liq. Bu esa faqat nazariy bilim emas, balki amaliy mashqlar orqali, muloqotga asoslangan dars uslublari orqali egallanadi. Shuningdek, mualliflarning fikricha, og'zaki va yozma nutq turlarining har ikki yo'nalishda rivojlanishi o'quvchilarning tafakkur doirasini kengaytiradi, ular mustaqil qaror qabul qila olish salohiyatiga ega bo'ladilar.

Bu borada professor S. Matjonovning fikrlari ham dolzarbligini yo'qotmagan. U o'quvchi badiiy asarni tahlil qilganida, uning ichki mohiyatiga kirishga harakat qiladi, degan. Bu esa o'z navbatida o'quvchida analitik tafakkur, mustaqil izlanish, hayotiy voqelikka nisbatan munosabat bildirish ko'nikmasini shakllantiradi.

Shuningdek, A. Nisanbayeva tomonidan ilgari surilgan nazariy g'oya – mashqlarni avval og'zaki bajarish va harakatlarni izohlash orqali bolalarda qoidasimon xulosa qilish salohiyatining shakllanishi – ona tili metodikasida qo'llashga arziydigan muhim yondashuvlardandir.

Shaxsiy amaliyotimda 'fikir zanjiri', 'aqliy hujum' kabi usullar o'quvchilarni jonlantirishda, ularning fikrlash doirasini kengaytirishda ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, biror matn asosida bahs-munozara tashkil qilish ularning nutqiy salohiyatini ancha faollashtiradi.

Darslarda til materialini faqat o'rganish emas, balki uni amalda qo'llay olish, fikrni aniq va mantiqan bayon qilish, matn tahlili orqali xulosa chiqarish, muloqotda etiketga rioya qilish – bularning barchasi o'quvchilarni nafaqat bilimli, balki yuksak madaniyatli, ma'naviy yetuk shaxs sifatida shakllantiradi.

Shu bois, zamonaviy darslar quyidagi yo'nalishlarda tashkil etilishi lozim:

- O'quvchining individual fikrini aniqlash va rag'batlantirish;
- Ijodiy topshiriqlar orqali nutq madaniyatini oshirish;

- Matn tahlili asosida xulosa chiqarish malakasini shakllantirish;
- Ko‘p fikrlilik muhitida bahs-munozaralarni yo‘lga qo‘yish;
- Og‘zaki va yozma nutq o‘rtasida integrativ yondashuvni ta‘minlash.

Quyida mavzu doirasida o‘zimning bir qancha tavsiyalarimni keltiraman:

– Har bir darsda nutqiy mashqlar majburiy bo‘lishi lozim. Grammatik qoidalarni tushuntirishdan tashqari, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqda erkin fikr bildirishiga e‘tibor qaratish zarur;

– Matnga asoslangan topshiriqlar ko‘paytirilsin. O‘quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish uchun matn tahliliga asoslangan savol-javob, munozara, esse yozish kabi faol metodlardan keng foydalanish kerak;

– Ko‘p fikrlilik va ochiq muloqot muhiti yaratilishi kerak. O‘qituvchi o‘quvchilarning har qanday fikrini qadrlashi, savollarni rag‘batlantirishi va o‘quvchilarni erkin fikrlashga undashi lozim;

– O‘qituvchining o‘zi ham ijodkor bo‘lishi kerak. Darslarda hayotiy misollar, badiiy ifodalar, zamonaviy muammolar asosida topshiriqlar ishlab chiqish – bu o‘quvchini darsga qiziqtiradi;

– Integrativ yondashuvga ahamiyat berish kerak. Ona tili darslarida adabiyot, san‘at, axloqiy tarbiya bilan bog‘liq mavzular orqali til va nutqni birgalikda rivojlantirish mumkin;

– Baholash mezonlari nutqiy faoliyatga moslashtirilsin. Og‘zaki javoblar, munozaralardagi faollik, yozma ishlardagi fikr aniqligi – bular baholashning asosiy mezoniga aylansin;

– Texnologiyadan foydalangan holda nutqiy salohiyatni rivojlantirish. Video taqdimotlar, ovozli topshiriqlar, nutqiy rollar, interfaol testlar orqali ham o‘quvchining til kompetensiyasi oshiriladi.

Ba’zida ona tili darslarida ko‘proq nazariyaga urg‘u berilib, amaliy mashqlar, og‘zaki va yozma nutqni rivojlantiruvchi topshiriqlar yetarlicha berilmaydi. Bu esa o‘quvchida nutqiy malaka shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli har bir darsda kamida bitta topshiriq bevosita o‘z fikrini ifodalashga xizmat

qilishi kerak. Bugungi ona tili darslari faqat bilim berish bilan cheklanmasligi, balki o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, savodli yozishga va mulohaza yuritishga o'rgatishi zarur. Bu esa faqat metodik yondashuvlar orqali emas, balki o'qituvchining o'z ustida doimiy ishlashi, har bir darsni hayotiy lashtira olishi bilan bog'liq. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ona tili darslari o'quvchini o'z fikrini bayon qila oladigan, ravon va to'g'ri nutq bilan muloqot qila oladigan, mustaqil, tanqidiy va ijodiy tafakkurga ega shaxs sifatida shakllantirishning muhim zaminidir. Buning uchun esa o'qituvchidan bilim, tajriba va pedagogik mahorat bilan birga, zamonaviy yondashuvlarni dars jarayoniga to'g'ri singdira bilish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Т.: Ўзбекистон.2016. - 146.
2. Махмудов Н. Нутк бойлиги// Умумфилологик тадқиқотлар: муаммолар ва ечимлар: Тезис шаклидаги макола. - Жиззах: 2011. - 22 б.
3. Матжонов С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. - Т.: Уқитувчи, 1996. - 20 б.
4. Нисанбаева А. Д. Ўзбек тили дарсларида матн воситасида ўқувчилар нутқини ўстиришнинг методик асослари (таълим қозоқ тилида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Пед. фан. номз. ...дис. - Т.: ТДПУ, 2008. - 92 б.
5. То'хлиев В., Shamsiyeva M., T. Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. - Т.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010. - 70 б. (184)